

ALISHER NAVOIY

(1441 - 1501)

Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher. U Hirotda tug'ilib, shu yerda umrining asosiy qismini o'tkazgan. Navoiyning otasi G'iyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan. She'r zavqi va iste'dodi erta uyg'ongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning "Mantiqut-tayr" asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan.

Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o'tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480-1500 yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'priq, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga "muqarrabi hazrati sultoniy" ("sulton hazratlarining eng yaqin kishisi") degan unvonni beradi. Unga ko'ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi.

Navoiy ijodi ixlosmandlari uning she'rlarini yig'ib, "Ilk devon" (1464-65) tuzgan edilar, so'ngra "Badoyiul-bidoya" ("Go'zallikning boshlanishi"), "Navodirun-nihoya" ("Nodirliklar nihoyasi") nomli devonlar (1470-yillar) tartib berilgan. Lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq "Xazoyinul-maoniy" nomli to'rt devon (1491-1498)ga jamlangan. Navoiy she'riyatining mavzular doirasi keng, janrlar ko'lami (16) xilmaxil. G'azallari "oshiqona, orifona, rindona" (Shayxzoda) sifatlar bilan o'rganiladi. G'azallarida insoniy muhabbat, ilohiy ishq bilan uyg'un holda ulug'lanib, "majoz - haqiqat ko'prigi" aqidasi amal qilingan. Alisher Navoiy she'riyatidagi zohiriy ma'no yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham o'rgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin.

"Nazmul-javohir" (1485) Hazrat Alining "Nasrul-laoliy" asarining turkiy nazmga solingani bo'lib, 266 ruboiydan iborat bu asarda axloqiy-talimiy qarashlar o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy ijodining yuksak cho'qqisi "Xamsa" asari (1483-85)dir, shoir birinchilardan bo'lib, turkiy tilda to'liq "Xamsa" yaratdi va turkiy tilda shunday ko'lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi.

"Xamsa" tarkibiga "Hayratul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlar kiradi.

Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singgan bo'lsa-da, maxsus "Lisonut-tayr" dostoni(1499)da, "Nasoyimul-muhabbat" manqabasi"(1495-96)da, "Tarixi anbiyo va hukamo"(1485-8), "Arbain", "Munojot" singari asarlarida aks etgan. (To'liqroq: www.literature.uz)

.....

QARO KO'ZUM

Qaro ko'zum, kelu mardumlug' emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,

Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la,

Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, ey charx,

Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni,

Sochingni boshdin-ayog' chin ila shikan qilg'il.

Xazon sipohiga, ey bog'bon, emas mone'

Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub o'lsam, ey rafiq, meni

Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il.

Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman qilg'il.

ORAZIN YOPQACH KO'ZIMDIN...

Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

Qut bir bodomu yerim go'shan mehrob edi,
G'orati din etti nogah bir baloliq ko'zu qosh.

Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,
Subhning bot-bot dami andog'ki aylar mehr fosh.

Bo'sae qilmas muruvvat, asru qattiqdur labing,
Desam og'zi ichra aytur la'l ham bor nav' tosh.

Novaking ko'nglimga kirgach jon talashmoq bu ekin,
Kim qilur paykonini ko'nglum bila jonim talosh.

Umri jovid istasang fard o'lki, bo'ston Xizridur,
Sarvkim da'b ayladi ozodaliq birla maosh.

Qoshi ollinda Navoiy bersa jon, ayb etmangiz,
Gar budur mehrob, bir-bir qo'ygusidir barcha bosh.

O'N SAKKIZ YOSH HAYRATLARI

O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur,

Ne ajab, chun sarvinozim o`n sakkiz yoshindadur.

Desa bo`lg`aykim, yana ham o`n sakkiz yil husni bor,

O`n sakkiz yoshina muncha fitnakim boshinadur.

O`n sakkiz yil dema, yuz sakson yil o`lsa, uldurur,

Husn shohi, ul balolarkim, ko`zu qoshinadur.

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki, bor,

Barchasi ezid taolo sun`i naqqoshinadur.

Tan anga siymu ichina tosh muzmar ko`nglidin,

Aqlg`a yuz hayrat, ul oyning ichu toshinadur.

May ketur, ey mug`ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,

Bul ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

To Navoiy to`kti ul oy furqatidin bahri ashk,

Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

MUBTALO BO`LDIM SANGA

Ko`rgali husnungni zoru muftalo bo`ldum sanga,

Ne balolig' kun edikim, oshno bo`ldum sanga.

Har necha dedimki kun-kundin uzay sendin ko`ngul,

Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo`ldum sanga.

Men qachon dedim: "Vafo qilg'il manga" zulm aylading,

Sen qachon deding: "Fido bo'lg'il manga" bo'ldim sanga.

Qay pari paykarga dersen telba bo'ldung bu sifat,
Ey pari paykar, ne qilsang qil manga, bo'ldum sanga.

Ey ko'ngul, tarki nasihat aylading ovora bo'l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sanga.

LABLARINGKIM HAYF ERUR...

Lablaringkim hayf erur teng tutmoq oni qand ila,
Sindirur yuz qand bozorini shakkar xand ila.

Toki hayronmen senga nomus ila itmish ko'ngul,
Telba yanglig'kim, qochar el g'ofil o'lg'ach band ila.

Odam ul soatki jannat ichra avlodin ko'rar,
Ne quvong'ay dam-badam sen nozanin farzand ila.

Qo'y nasihat, zohido, o'tlug' damimdin vahm qil,
Telba it imkoni yo'qturkim, sog'alg'ay pand ila.

Hojatingni elga arz etmakka hojat bo'lmasun,

Xush chiqishsang lahzani bu zori hojatmand ila.

Lablaring hajrinda yur parkandkim bo'lmish ko'ngul,

La'l erur mahlul qon o'rnig'a har parkand ila.

Chun Navoiy ko'ngli sindi, emdi lutfing ne asig'?

Kim ushatsa shishani bitmas yana payvand ila.

OSHIQ O'LDUM

Oshiq o'ldum, bilmadim yor o'zgalarga yor emish,

Olloh-olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish.

Qaddig'a el mayli bo'lg'ondin ko'ngul ozurdadur,

Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Elga novak urdi, men o'ldim erur bu turfakim,

Jonim etgan resh el bag'rig'a kirgan xor emish.

Rishtakim, muhlik yaram og'zig'a tiktim angladim,

Kim kafan jinsi qirog'idin suvurgan tor emish.

Ko'yi devoridin og'riq tang'a tushgan soyadek,

Sel g'amidin emdi soya o'rnig'a dildor emish.

Jong'a taxvif ayladim tig'i halokidin aning,

Bilmadim bu ishdin ul o'lguncha minnatdor emish.

Ey Navoiy, xo'blarni ko'rma osonlig' bilan,

Kim biravkim soldi ko'z, uzmak ko'ngul dushvor emish.

ISTADIM

Qon yutub umri jahon ahlida bir yor istadim,
Lekin ul kamrak topildi, garchi bisyor istadim.

Kimga kim jonim fido aylab sog'indim dam-badam,
Ermas erdi yorliqda chun vafodor istadim.

Bilmadim olam elida yo'qturur mutlaq vafo,
Vahki, umri ulcha yo'qtur sog'inib yor istadim.

Ulki, topilmas bashar jinsida vah g'aflat ko'rung,
Kim pari xaylida men devonai zor istadim.

Sirri ishqimni ko'ngul ko'z birla fosh etmak ne tong,
Qalbu tardomanni men chun sohib asror istadim.

Shayx birla xonaqahdin chun yorug'luq topmadim,
Dayr piri xizmatig'a ko'yi xammor istadim.

Ey Navoiy, chun rafiqi topmadim, bu g'ussadin,
O'zni bekaslik balosig'a giriftor istadim.

MENI MEN ISTAGAN KISHI...

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim bahrai andin tilarmen bahramand etmas.

Netay huru pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a,
Ayon ul zahr chashm aylab nihon, bu no'shxand etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husnu malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas, tanim ul band-band etmas.

Kerak o'z chobuki majnunvashi qotil shiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerga javloni samand etmas.

Ko'ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy tegmasun deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

KECHA KELGUMDIR DEBON...

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtimu chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zing'avu ul sho'xi badxo' kelmadi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zgorimdek ham o'lg'onda qorong'u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim anga ko'rganda kulgu kelmadi.

Ko'zlarindin necha suv kelgay deb o'lturmang meni,
Kim bori qon erdi kelgan bu kecha suv kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo'qsakim qo'ydi qadam,
Yo'lg'akim avval qadam ma'shuqa o'tro' kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

JONG'A CHUN DERMEN

Jong'a chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati?»

Derki: «Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati».

Jismdin so'rsamki: «Bu za'fingg'a ne erdi sabab?»

Der: «Anga bo'ldi sabab o'tluq bag'irning hirqati».

Chun bag'irdin so'rdum, aytur: «Andin o't tushti manga

Kim, ko'ngulga shu'la soldi ishq barqi ofati».

Ko'ngluma qilsam g'azab, ayturki: «Ko'zdindur gunah,

Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati».

Ko'zga chun dermenki: «Ey, tardomani yuzi qaro,

Sendin o'lmish telba ko'nglumning baloyu vahshati».

Yig'lab aytur ko'zki: «Yo'q erdi manga ham ixtiyor
Ki, ko'rundi nogahon ul sho'xi mahvash tal'ati».

Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy
Kim, sanga ishq o'ti-o'q ermish azalning qismati.

XIL'ATIN TO AYLAMISH...

Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil,
Shu'layi ohim chiqar har yon qizil, sorig', yashil.

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin
Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sorig', yashil.

Shishadek ko'nglumdadur gulzori husnung yodidin,
Tobdonning aksidek alvon qizil, sorig', yashil.

Orazu xoling bila xatting xayolidin erur
Ko'zlarimning ollida davron qizil, sorig', yashil.

La'lgun may tutqil oltun jom birla sabzada
Kim, bulardin yaxshi yo'q imkon qizil, sorig', yashil.

Faqr aro berangliq dushvor erur behad, valek
Xirqada tikmak erur oson qizil, sorig', yashil.

Ey Navoiy, oltinu shingarfu zangor istama,
Bo'ldi naming rangidin devon qizil, sorig', yashil.

ISTANGIZ

Istaganlar, bizni sahroi baloda istangiz,

Vodiyi hijron ila dashti fanoda istangiz.

Vomiqu, Farhodu Majnundeklar ul vodiy aro

Bo'lsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz.

Yuz alarning ishqicha dardu, balou g'ussag'a

Tolib el boshig'a kelgan mojaroda istangiz.

Eyki, istarsiz savodul vajah fiddorayidin,

Boxabar bo'lmoq meni yuzi qaroda istangiz.

Ko'nglim ul zulf ichradur, zinhor ishqim sharhini

Istamang men telbada, ul mubtaloda istangiz.

Nuqta yanglig'kim, vafo uzra qilur kotib raqam,

Ishq o'tining dog'ini ahli vafoda istangiz.

Og'zi shavqidin Navoiy itti, oni istar el,

Yo adam dashtida, yo mulki fanoda istangiz.

KELGAY

Ne kun o'lg'ayki, nigorim kelgay,

Bog'i umrumda bahorim kelgay.

Umr bog'ida bahor uldurkim,
Sarvqad lolauzorim kelgay.

Il gado jonig'a o't tushkaykim,
Olg'ali sham'i mazorim kelgay.

Ko'yida itti ko'ngul, vah, qachon ul
Masti devonashiorim kelgay.

Qani maykim, chu ichib mast o'lsam,
Ko'kka tuz boqqali orim kelgay.

Ey Navoiy, tilamon huru pari,
Shoyad ul bazmda yorim kelgay.

Ruboiylar

KO'Z BIRLA QOSHING YAXSHI

Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,
Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.
Eng birla menging yaxshi, saqoqing yaxshi,
Bir-bir ne deyin boshtin-ayog'ing yaxshi.

GAR OSHIQ ESANG

Gar oshiq esang mehru vafo qilma havas,
Dard istayu daf'ig'a davo qilma havas.
Hijronu visol mutlaqo qilma havas,
Dildoringdan g'ayri rizo qilma havas.

ZOHID SENGA...

Zohid, senga – hur, manga – jonona kerak,

Jannat – sanga bo'lsun, manga – mayxona kerak.

Mayxona aro soqiyu paymona kerak,

Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak.

UMRI AZIZ

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,

Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

XUSHLUQ

Kim ko'rdi ekin jahonda oyo xushluq,

To bir kishi aylagay tamanno xushluq.

Yuz yilda agar bir o'lsa paydo xushluq,

Omodadur yonida yuz noxushluq.

JONIMDAGI "JIM"

Jonimdagi 'jim' ikki dolingg'a fido,

Andin so'ng 'alif' toza niholingg'a fido,

'Nuni' dog'l anbarin hilolingg'a fido,

Qolg'on iki nuqta ikki xolingg'a fido.

O'PAY

Dedim:'Zaqaning tutub saqog'ingni o'pay,
Ko'z-qoshingga surtubon qabog'ingni o'pay,
Guldek yuzing islabon dudog'ingni o'pay,
Yo'q,yo'q,yo'q, agar desang,ayog'ingni o'pay.

Tuyuqlar

YO LABMUDUR

Yo rab,ul shahdu shakar yo labdurur,
Yo magar shahdu shakar yo labdurur.
Jonima payvasta novak otqali,
G'amza o'qin qoshiga yolabdurur.

BORMOG'IN

Necha dedim ul sanamg'a: Bormog'in!
Qilmadi ul tark oxir bormog'in;
Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul,
Aql hayrat qildi tishlab barmog'in.

OLMANGIZ

Pardani ruxsorasidan olmangiz,
Hohaq o'lturdi meni shul olmangiz;
Gar anoristong'a sunsa ilgini,

Aytur: - Ul tursun, amonat, olmangiz!

YOQILUR

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin yo qilur;

Men vafosi, va'dasidin shodmen,

Ul vafo, bilmanki, qilmas, yo qilur.

OLMANI OTTI NIGORIM

Olmani otti nigorim, "ol",-dedi

"Olma birla bu ko'ngilni ol",-dedi

So'rsam ersa olamsini rangini

"Olma rangin ne so'rursan, ol",-dedi

FARHOD VA XISRAV AYTISHUVI

Dedi: qaydinsen ey majnuni gumrah?

Dedi: majnun vatandin qayda ogah.

Dedi: nedur senga olamda pesha?

Dedi: ishq ichra majnunliq hamisha.

Dedi: bu ishdan o'lmas kasb ro'zi,

Dedi: kasb o'lsa basdur ish so'zi.

Dedikim: ishq o'tidin de fasona!

Dedi: kuymay kishi topmas nishona.

Dedikim: kuymakingni ayla ma'lum!

Dedi: andin erur joh ahli mahrum!

Dedi: qay chog'din o'ldung ishq aro mast?

Dedi: ruh ermas erdi tang'a payvast.

Dedi: bu ishqdin inkor qilg'il!

Dedi: bu so'zdin istig'for qilg'il!

Dedi: oshiqqa ne ish ko'p qilar zo'r?

Dedi: furqat tuni ishq balosho'r.

Dedi: ishq ahlining nedur hayoti?

Dedi: vasl ichra jonon iltifoti.

Dedikim: Dilbaringning de sifotin!

Dedi: til g'ayratidin tutmon otin!

Dedikim: ishqig'a ko'nglung o'rundur?

Dedi: ko'nglumda jondek yoshirundur.

Dedi: vaslig'a borsen orzumand?

Dedi: bormen xayoli birla hursand.

Dedi: no'shi labidin topqay el bahr?

Dedi: ul no'shdin el qismidur zahr.

Dedi: joningni olsa la'li yodi?

Dedikim: ushbudur jonim murodi.

Dedi: ko'ksungni gar chok etsa bebok?!

Dedi: ko'nglum tutay ham ayla deb chok.

Dedi: ko'nglung fido qilsa jafosi?

Dedi: jonimni ham ayla fidosi.

Dedikim: ishqdin yo'q juz ziyon bud.

Dedi: bu kelsa savdo ahlig'a sud.

Dedi: bu ishq tarki yaxshiroqdur!

Dedi: bu sheva oshiqdin yiroqdur!

Dedi: ol ganju qo'y mehrin nihoniy,

Dedi: tufroqqa bermon kimyoni!

Dedi: joningg'a hijron kinakashdur,

Dedi: chun bor vasl ummidi xushdur.

Dedikim: shahg'a bo'lsa shirkat andesh!

Dedi: ishq ichra tengdur shohu darvesh!

Dedi: joningg'a bu ishdin alam bor,

Dedi: ishq ichra jondin kimga g'am bor?!

Dedi: kishvar beray, kech bu xavasdin!

Dedi: bechora, kech bu multamasdin!

Dedi: ishq ichra qatling hukmi ettkum!

Dedi: ishqida maqsudimg'a yetkum.

Dedi: bu ishda yo'q sendin yiroq qatl,

Dedi: bu so'zlaringdin yaxshiroq qatl.